



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



DENOV TADBIRKORLIK  
VA PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

Ro'yxatga olindi  
№ 1941.3.02.2025 yil  
2025 yil "26" "06"



"TASDIQLAYMAN"  
Denov tadbirkorlik va  
pedagogika instituti o'quv  
ishlari bo'yicha prorektori  
U.X. Bo'tayev  
2025-yil

BITIRUVCHI KURS TALABALARI UCHUN BITIRUV MALAKAVIY  
ISHLARINI BAJARISH VA BAHOLASH BO'YICHA  
DASTUR

Bilim sohasi:	100000	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	120000	Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60220300	Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

DENOV – 2025

Ushbu dasturda bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan bo'lib, bundan 60220300 - Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalari foydalanishi mumkin.

**Tuzuvchilar:**

- Yakubova D.T. – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasini mudiri, professor, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Nazirov B.S. – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasini dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:**

- G'afforov Sh.S. – Samarqand davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasini professori, tarix fanlari doktori
- Mengliboyev A.X. – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti "Tarix va falsafa" kafedrasining 2025-yil «27» 08 dagi 1 - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

**Kafedra mudiri:**

**D.T. Yaqubova**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti kengashining 2025-yil «27» 08 dagi 1 - sonli majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

**Fakultet dekanı:**

**M. Toshboboyev**

Ushbu dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv uslubiy bo'limining 2025-yil «27» 08 dagi 1 - sonli majlisida tasdiqlangan.

**O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:**

**B. Primqulov**

## KIRISH

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasi, xususan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor har tomonlama yetuk intellektualsalohiyatli kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqti-soati keldi, deb o'ylayman."<sup>1</sup>, - deb ta'kidlab o'tgan edi. Davlat rahbarining tarix fanini rivojlantirish borasida aytgan ushbu so'zlari zahirida tarixchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashda avvalo ularni tarix falsafasi ruhi bilan sug'orish, kreativ va zamonaviy tanqidiy fikrlovchi, chuqur bilimga ega kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, oliy ta'limda tarixchi mutaxassislar tayyorlashning butunlay yangicha, ilmiy muassasalar bilan uzviy bog'langan tizimini yaratilishi ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda respublika ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhimahamiyat kasb etadi.

Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanlari bo'yicha bilimlar majmuasini o'zlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uzviyligida malaka hamda ko'nikmalarni mukammal shakllantirishda bitiruv malakaviy ishining o'rni beqiyos. 60220300 – Tarix (mamlakatlar yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs kurs talabalari uchun bitiruv malakaviy ishlarini to'g'ri tashkil etishbo'lajak yosh mutaxassislarni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlashning eng muxim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu dastur bitiruv malakaviy ishini bajaruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun qo'yiladigan talablar va kerakli ma'lumotlar bayon etilgan.

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda>

## Bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Zamonaviy tarixchi keng qamrovli bilimlarga ega bo'lishi, nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan bog'lay olishi va o'z tanlagan sohasi bo'yicha haqiqiy bilimdon bo'lishi lozim. Bu maqsadga erishishtalabadan o'z ustida tinmay ishlashni, nazariy va amaliy bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishni, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, uni oqilona tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarini chuqur o'zlashtirishni talab qiladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun talablaridan kelib chiqib, har tomonlama barkamol va bilimdon kadrlarnitayyorlashda ta'limning ko'p qirrali va turli xil usullaridan (ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish, ishbilarmonlik o'yinlari va keyslar yechish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng qo'llash, talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish va bitiruv oldiamaliyoti o'tash, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari yozish) unumli foydalanish talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi – oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir. Bitiruv malakaviy ishida talabanning oliy o'quv yurtida o'qish davomida to'plagan barcha nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, talabanning nazariy bilimlar bilan qurollanish darajasi, uning olgan bilimlari va ko'nikmalarini ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini yechishga qay darajada qo'llay olishi namoyon bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish talabadan universitetda olgan nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishni talab etadi, talabanning o'qish davomida olgan bilimlarini umumlashtirishga, chuqurlashtirishga va mustahkamlashga, ularni amaliyotga qo'llashga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishida aniq bir amaliy vazifani yechish vazifasi qo'yilishi muhimdir. Bitiruv malakaviy ishida bir yoki bir-biri bilan bog'langan bir nechta masalalarni chuqur tadqiq etish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish talabanning muammoni mustaqil ko'ra bilishi va hal eta olishga qodirligini ko'rsatadi. Bitiruv malakaviy ishi xalq ta'limini rivojlantirish, uni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishga oid texnik, texnologik, nazariy-amaliy va sosiologik tadqiqotlarni qamrab olishi, muammolarni hal etish yo'llari ko'rsatilgan ilmiy asoslangan xulosalar va takliflarga ega bo'lishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishining sifati uning ilmiyligi, tanlangan mavzuning dolzarbligi, talabanning mustaqil ishga ijodiy yondoshish ko'nikmalarini namoyon qila olishi bilan baholanadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarilish darajasi, sifat va undan ko'rib chiqilgan masalalarning qanday darajada o'zlashtirilganligiga ko'ra Davlat Attestasiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishi muallifiga tegishli ixtisoslikni berish to'g'risidagi qaror qabul qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida talabalar quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- voqeyelikni o'rganish va anglashning ilmiy usullaridan boxabar bo'lish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning mohiyati va mazmunini chuqur anglash, davlatning oliy va o'rta ta'lim sohasidagi siyosati

tamoyillari bilan yaqindan tanishish;

- kadrlar sifatini yaxshilash va bu yo'nalishdagi isloh qilish zarur bo'lgan omillar borasida qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqish;

- ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar orqali o'rganilayotgan masalaning mohiyatini chuqur anglab yetish;

- mustaqil ilmiy-tadqiqotlar olib borish uslubiyoti bilan tanishish;

- aniq bir mavzu misolida masalaning yechimini ochib berishga xizmat qiladigan barcha ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlash;

- ishda tadqiqotlar olib borishning turli ilmiy uslublardan foydalangan holda ilmiy-tadqiqot muassasalari tavsiyalari, ilg'orlar tajribasi, mahalliy va xorijiy adabiyotlardan unumli foydalanish;

- ishning ilmiy saviyasi yuqori bo'lishiga, mavzuning yetarlicha dolzarbligiga e'tibor berish;

- o'rganilayotgan masalani aniq ochib berish, ishda ko'chirmachilikka, keraksiz va ortiqcha ma'lumotlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

- boblar va bo'limlarning mantiqan bog'lanishiga e'tibor berish, fikrlarni qisqacha bayon etish orqali ishning hajmi ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

- masalani aniq dalillar va raqamlar yordamida tahlil etish, o'z o'rnida ishning mazmunidan kelib chiqadigan tavsiyalar va xulosalar bera olish;

- tavsiya etilayotgan yechimlarning asoslanganligiga va samaradorligini baholash mezonlari bo'lishiga e'tibor berish, ishning faqatgina faktlarni quruq bayon etishdan iborat bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik;

- ishda ko'rgazmali vositalardan, ya'ni jadvallar, chizmalar, diagrammalar va grafiklardan unumli foydalanish;

- mavzu ustida maqsadga yo'naltirilgan va tizimga solingan ish olib borish, bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlariga qat'iy rioya etish.

Bitiruv malakaviy ishida taklif va muloxazalar, xulosalar va amalga oshirilgan barcha natijalarning to'g'riligi va sifati uchuntalabalar ma'sul hisoblanadilar.

## 2. Bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan bajariladigan ilmiy izlanish yakuni bo'lib, unda talaba o'qish davri mobaynida olgan nazariy bilimlari, amaliy darslarni qanday darajada o'zlashtirganligini, shu bilan birgalikda o'z ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyat uchun tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Bitiruv malakaviy ishi bakalavriyatning mazkur yo'nalishiga davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablarga, tarix fanining rivojlanish istiqbollari va mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuniga mos kelishi maqsadga muvofiq.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- talabalarning ta'lim yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirish, tizimga keltirish, mustahkamlash va kengaytirish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, yechimtalab etadigan muammo va masalalarni tadqiq etish usullarini egallashga va tadqiqot o'tkazishga imkon yaratish;
- ijodiy ishlash, tadqiqot olib borilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan ma'suliyatni his etishga o'rgatish.

### 3. Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusini tanlash.

Bitiruv malakaviy ishlar muvaffaqiyatini aniqlaydigan muhim va mas'uliyatli vazifalardan biri – tadqiqot mavzusini tanlashdir. Mavzularga qo'yiladigan umumiy talab – ularning dolzarbligi, tarix fanining muammolari bilan bog'liqligidir. Ular hozirgi zamon talablari va tarix fani istiqbollaridan kelib chiqishi zarur.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi keng qamrovli nazariy va amaliy xususiyatga ega bo'lishi, tarix ta'limini rivojlantirishning eng muhim vazifalarini qamrab olishi va ilmiy-ishlab chiqarish yo'nalishida tadqiqotlar olib borishni nazarda tutishi lozim. Bitiruv malakaviy ish mavzusi muammoning zamonaviy holatini va uning yechimini, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda ushbu masala ustida tadqiqotlar olib borish nima uchun zarurligini, halq ta'limi bilan bog'liq qanday muammolar bunga sabab bo'lganini va tadqiqot yakunlari bo'yicha erishilajak natijalar muammoni yechishga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq bayon etib berish lozim.

Mavzu tanlashda ayrim talabalarning istiqbolda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga layoqati borligini nazarda tutgan holda bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu kelgusida magistrlik va doktorlik dissertasiyalari tayyorlashda ham davom ettirilishi maqsad qilib qo'yilishi mumkin.

Shu bilan birga tavsiya qilinayotgan va tanlangan mavzuning o'quv jarayonida foydalanishini ham nazarda tutmoq lozim. Buning uchun mavzuning o'qilayotgan ma'ruza yoki olib borilayotgan amaliy mashg'ulot dasturida o'z ifodasini topishiga erishish lozim.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ixtisoslashgan kafedralar tomonidan belgilanadi va universitetning ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi, mavzular har o'quv yilida 20-30 foizga yangilanishi tavsiya etiladi.

Bitiruvchi talabaga bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash huquqi beriladi. Mavzuni tanlash jarayonida talabalarga ish rahbari yordam berishi maqsadga muvofiq. Mavzuni tanlash jarayonida rahbar tavsiya etilayotgan mavzular ro'yxatini berish bilan cheklanib qolmay, balkitanlanadigan mavzuni mohiyati va ochib berish imkoniyatlari bilan hamda ma'lumotlar manbalari bilan talabani tanishtirishi maqsadga muvofiq.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlashda rahbar va talaba quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Malakaviy bitiruv ishini yozish jarayonida mavzuni chuqur o'rganish va

tajriba oshirish imkoniyati mavjudligi;

2. Talabanning ilmiy-amaliy izlanishga qobiliyatligi;

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma'lumotlar, yo'riqnomalar bilan ta'minlanganlik darajasi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi. Bitiruv malakaviy ish mavzusi va kafedra mudirining taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

#### **4. Malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish.**

Bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlar oliy o'quv yurtining professor va dosentlari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassisleri safidan tayinlanadi.

Ilmiy rahbar tanlash talabanning keyingi ilmiy faoliyatini davom ettirishiga ham katta samara berishini maqsad qilib qo'yish kerak. Shu munosabat bilan ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) tanlashda har bir professor-o'qituvchining ilmiy darajasi, unvoni, faoliyati va salohiyati, pedagogik tajribasi, oldingi uning rahbarligida bajarilgan ilmiy ishlar natijalari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:**

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsif etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda maslahatlar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan majburiy talablar hajmini belgilangan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqadi va talabalarni ta'minlaydi.

#### **5. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi.**

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabanning hisobot berish muddatlarini o'quv-uslubiy bo'limi nazorat etadi. Mavzu tanlangandan so'ng talaba shu mavzuni yozishi haqida ariza va topshiriq varaqasini to'ldiradi.

Talabalar bitiruv oldi malakaviy amaliyotga chiqishdan oldin rahbar bilan birgalikda bitiruv malakaviy ishning rejasini tuzishi talab etiladi. Bitiruv malakaviy ishi rejasini talaba va rahbar bilan maslahatlashib kelishilgan holda tuziladi. Reja mukammal va mufassal holda tuzilib, tadqiq etilishi ko'zda tutilgan barcha boblar va paragraflarni qamrab olishi kerak.

Ish rahbari malakaviy ishning rejasiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq, to'ldiriladigan jadvallar maketini beradi. Talaba amaliyotga jo'nashdan oldin mavzuga oid barcha nazariy materiallarni yig'ishi va tizimga solishi lozim. Bu unga amaliyot davomida tadqiqotni olib borish yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy materiallari talabalar tomonidan bajarilgan bitiruv oldi amaliyoti va bitiruv malakaviy ishini bajarish davrida to'plangan ma'lumotlari va nazariy bilimlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishlari so'nggi uch yillik ma'lumotlari asosida yozilishi maqsadga muvofiqdir. Eskirgan yoki mavhum ma'lumotlardan foydalanish taqiqlanadi.

**Bitiruv malakaviy ishini bajarishda zaruriy manbalar quyidagilar bo'lishi lozim:**

- bitiruv malakaviy ishining barcha boblarini yoritishda foydalanilgan tarixiy adabiyotlar;
- respublika Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar hujjatlari va maxsus adabiyotlar;
- nizomlar, preyskurantlar va yo'riqnomalar;
- e'lon qilingan statistik ma'lumotlar;
- mavzu bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlarining materiallari;
- gazeta, jurnal va boshqa matbuot nashrlari.

## **6. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va mazmunini yoritish qoidalari.**

Ixtisoslashgan kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan majburiy talablarni belgilaydi va bu talablarni talabalar e'tiboriga yetkazadi. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida boblar va savollar bo'yicha ayrim o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishi 13 ming so'z hajmida belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob (3 ta bob), xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'ladi. Har bir bobda 2-3 ta paragraflar bo'lishi maqsadga muvofiq. Har bir malakaviy bitiruv ishini mazmuniga ko'ra boblar, bo'limlar bir-biridan farq qiladi. Malakaviy bitiruv ishini umumiy hajmi qo'lyozmada 50-75 betdan oshmasligi tavsiya etiladi.

Har bir bob mavzuning mohiyatini to'liq ochib beradigan va mantiqan ketma-ketlikka ega bo'lgan paragraflarga bo'linadi. Har bir bobni o'rganilayotgan muammoning yechimini ochib beruvchi asosiy natijalardan iborat xulosalar bilan yakunlash tavsiya etiladi.

Tushuntirish qismi (annotasiya) malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, chizma va boshqa, shuningdek, zaruriy qo'shimcha axborotlar yozilgan disketlar ilova etilishi mumkin. Tushuntirish qismi 2-3 betdan oshmaydigan holda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

## Bitiruv malakaviy ishlar tarkibi

1-jadval

Malakaviyish tarkibi	Yoritiladigan asosiy masalalar	Tavsiya etilayotgan hajmi, bet
<b>Mundarija</b>		I
<b>Kirish</b>	Mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'yekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va ishning tarkibiy tuzilishi	4-5
<b>I BOB</b>	Mavzuning nazariy asoslari, hozirgi holati tahlili	15-18
<b>II BOB</b>	Mavzu bo'yicha ilgari surilayotgan asosiy g'oyalar, tajribalar va mavjud tizimni takomillashtirish yo'nalishlari	15-18
<b>III BOB</b>	Mavzu bo'yicha jamlangan faktlar asosida tadqiqot muammosiga yakuniy, chuqur tahliliy va qiyosiy xulosa berish, shuningdek, ilmiy farazni isbotlash	15-18
<b>Xulosa</b>	Tadqiqot mavzusi yakunlari bo'yicha xulosalar va takliflar	4-5
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b>	O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mavzu bo'yicha maxsus adabiyotlar, ilmiy ishlar, maqolalar, yo'riqnomalar, statistik ma'lumotlar manbalari	2-3
<b>Ilovalar</b>	Mavzuga tegishli bo'lgan har qanday qo'shimcha statistik ma'lumotlar, jadvallar, chizmalar, diagrammalar, me'yoriy hujjatlardan ko'chirmalar va boshqalar	Cheklanmagan

**Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida** mavzuning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzuning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'yekti va predmeti, ilmiy yangiligi va ishning tarkibiy tuzilishi mazmunan yoritiladi.

Maqsad va vazifalar bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmunini aks ettirish va qanday vazifalarni yechishga yo'naltirilganini ko'rsatib berishi lozim.

**Birinchi bobda** bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari bayon etilib, tadqiqotning ilmiy va uslubiy jihatlariga qaratiladi va tadqiqot olib borilgan ob'yektning tasnifini o'zida aks ettirishi lozim. Bunda hozirgi davrda bu mavzuga bo'lgan nazariy yondoshuvlar, masalaning mohiyati, muammoni yechishning asosiy omillari va talabaning ilmiy, nazariy qarashlariga bo'lgan munosabati bildiriladi.

Mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, alohida paragrafda mavzuga oid muayyan uslubiy masalalarni ham ko'rib chiqish foydadan xoli emas. Albatta, talaba uchun mavzuning nazariy va uslubiy jihatlarini ishlab chiqish og'ir. Ammo, mavzuda ko'rib chiqilayotgan masalalarni yechimiga oid ilmiy-uslubiy yondoshuvlar va ularning samaradorligini baholash mezonlariga umumiy baho berib ketish mumkin.

**Ikkinchi bob** odatda muayyan tadqiqot ob'yekti bo'yicha o'rganilayotgan muammoning umumiy holatini tahlil etishga bag'ishlanadi. O'rganilayotgan ob'yektning muammolarini tahlil etish yetarlicha chuqur va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, masalaga oid haqiqiy ma'lumotlarga asoslanishi lozim. Ishda manbalarning oxirgi yillardagi yangilangan variantlari ma'lumotlari tahlili asos qilib olinishi lozim.

Tadqiqot olib borilgan ob'yekt misolida ilmiy mavzu tahliliy-hisoblar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar va chizmalar orqali ochib beriladi. Har bir jadval, diagramma, chizma, grafik so'ngida uning tahlili beriladi.

Muallif tahlillar asosida mavzuni takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar, uslubiy yondoshuvlar ishlab chiqadi, ilgari surilayotgan taklif va g'oyalar ham ilmiy ham amaliy jihatdan asoslanadi.

Ikkinchi bob ustida ishlash talabdan chuqur tayyorgarlikni talab etadi. Buning uchun ilmiy adabiyotlar va amaliy xarakterdagi ma'lumotlarning yetarli bo'lishi kifoya qilmaydi. Ushbu bobni tayyorlashda talabaning ilmiy-tadqiqotlar olib borishga qodirligi, muammoni chuqur tahlil eta olishi va murakkab ishlab chiqarish sharoitlarida to'g'ri qarorlar qabul qila olishi namoyon bo'ladi.

**Xulosa va takliflar** bitiruv malakaviy ishining mazmuni bayon etilishini yakunlaydi. Unda talaba olib borgan ilmiy izlanishlarning natijalari umumlashtiriladi. Xulosa va takliflar aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon etilishi, faqatgina mavzuga oid masalalarni o'zida aks ettirishi lozim.

Xulosa va takliflar bitiruv malakaviy ishining kirish qismida yoritilgan maqsad va vazifalarga to'liq mos kelishi hamda ish oldiga qo'yilgan vazifalar qanday yechilganini ko'rsatishi lozim. Takliflar aniqnatijalarga, tajribalarga asoslangan holda ko'rsatib berilishi, zaruriy hisob-kitoblar va ma'lumotlar bilan mustahkamlanishi maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirish.** Adabiyotlar ro'yxati bitiruv malakaviy ishining oxirgi qismida keltiriladi va adabiyotlar qay tarzda quyidagi tartibda berilishi lozim:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari.
2. Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari.
3. Ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o'quv ko'rsatmalar va boshqa adabiyotlar (alfavit tartibiga ko'ra).
4. Yo'riqnomalar, turli me'yoriy hujjatlar, akt materiallari va boshqalar.
5. Statistik to'plam materiallari, arxiv materiallari.
6. Ilmiy maqolalar.
7. Davriy matbuot materillari.
8. Internet saytlari.

Bitiruv malakaviy ishlarida so'nggi paytlarda universitet kutubxonasiga

xorijdan, Rossiyadan yoki chet-eldan keltirilgan va ayniqsa internet orqali olingan eng yangi adabiyotlardan foydalanilishi ko'rsatib o'tilishi shart.

Adabiyotlar ro'yxatida bitiruv malakaviy ishi jarayonida foydalanilgan barcha ma'lumotlarning manbalari ko'rsatilishi lozim.

Zarur hollarda adabiyotlar keltirilgan sitatalarning manbasi albatta o'sha betda ko'rsatilishi, shu jumladan jadval yoki sxema manbasi ham o'sha betda ko'rsatib berilishi lozim. Agar jadval yoki chizma muallif tomonidan tayyorlangan bo'lsa, qaysi manbadan foydalanib muallif tayyorlanganligi ham ta'kidlab o'tiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajaruvchi talaba ish jarayonida ko'rib chiqqan lekin bitiruv malakaviy ishi uchun ishlatilmagan, maxsus materiallar yoki faqat xizmat bo'yicha foydalanish uchun chop etilgan materiallar ro'yxati ko'rsatilmaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar ko'rsatilishi shart:**

- muallifning ismi-sharifi, adabiyotning nomi, chop etilgan manzili, nashriyotdan chiqqan yili va foydalanilgan saxifalari.

- ro'znoma va oynomalardagi maqolalar ham adabiyotlar singari rasmiylashtirilib, unda muallifning ismi-sharifi, ro'znoma yoki oynamaning nomi, raqami, sanasi va foydalanilgan betlari ko'rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ishlarda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kamida 20 manbani tashkil etishi kerak. Bitiruv malakaviy ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxati talab asosida beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlarga murojaat etilgan joylari varag'ning pastki qismida ko'rsatib o'tilishi shart. Bitiruv malakaviy ish bo'yicha foydalanilgan adabiyotlarning barchasiga ishda ishora bo'lishi shart.

Bitiruv malakaviy ishda foydalanilmagan manbalarni ro'yxatga kiritish qat'iy qat'iy taqiqlanadi. Ilmiy ishlarda (shu jumladan, BMI va MDda) ko'chirmachilik va ilmiylikni soxtalashtirishni oldini olish uchun har bir adabiyot manbalari (risolalar, darsliklar, maqolalar, BMI, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari) ish oxirida ro'yxati keltiriladi, matnda ulardan olingan har bir jumla oxirida katta qavs ichida ro'yxatdagi qator sanog'i va beti [--bet] yoki faqat qator sanog'i [---] yoziladi.

*Ilovalar* qismida bitiruv malakaviy ishining ob'yekti bo'yicha olingan umumiy amaliy va axborot ma'lumotlari beriladi.

## **9. Bitiruv malakaviy ishlarini amaliyotga hamda**

### **o'quv jarayonlariga qo'llanilishi**

Har qanday ilmiy-tadqiqot ishlariga, shu jumladan bitiruv malakaviy ishlariga ham qo'yiladigan asosiy talablardan biri muallifning o'z ilmiy-tadqiqot ishlari natijalaridan o'quv jarayonida foydalanish darajasi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishining tavsiyalaridan ilmiy rahbar ma'ruza matnlarida, amaliy mashg'ulotlarida va keys stadilar tayyorlashda foydalanishi ko'zda tutilgan. Har bir ilmiy-tadqiqot natijalari o'quv jarayonida foydalanilganda muayyan fan mavzusi ko'rsatiladi. Shuningdek, fanga taaluqli o'quv, o'quv-uslubiy hujjatlar majmuasida - ishchi dastur, ma'ruzalar matnlari, masalalar to'plamlari va ishbilarmonlik o'yinlarida (mavzu va betlar ko'rsatilishi shart) o'z ifodasini topadi.

Ichki va tashqi taqrizchilar bitiruv malakaviy ishining tavsiyalaridan ilmiy

rahbar o'zining ma'ruza matnlarida, amaliy mashg'ulotlarida va keys stadilar tayyorlashda foydalanganligini ko'rsatib o'tadilar. Ular o'z taqrizlarida Bitiruv malakaviy ishining qaysi bobi, paragrafi, jadvallari va betlari (soni ko'rsatilgan holda) o'quvjarayonlarida qo'llanilayotganligini ko'rsatib o'tishlari shart hisoblanadi.

#### **10. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish.**

BMI ni talaba mustaqil o'zi bajargan bo'lishi shart, agarda BMI ni talaba o'zi yozmaganligi aniqlansa, talabaga nisbatan keskin choralar qo'llaniladi.

Umumiy qabul qilingan belgilardan tashqari boshqa so'zlarni qisqartirib yozilishiga stilistik xatolarga yo'l qo'yilmasligi va bitiruv malakaviy ishi mavzusini yozilishi adabiy tilda bo'lishiga ham ahamiyat berishi kerak. Bitiruv malakaviy ishini matni aniq, erkin o'qiladigan husnixatda standart yozuv qog'ozining bir tomonida yoziladi, Qog'ozning chap qismidan 3 sm., yuqori qismidan 2 sm., o'ng tomondan 1,5 sm., past qismidan 2 sm. joy qoldiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi qo'lyozmada qog'ozning bir tomonida bajarilishi shart. Bitiruv malakaviy ishi quyidagicha rasmiylashtiriladi.

- dastlab titul varag'i, mundarija, kirish, 1, 2 va 3 boblar, xulosa vatakliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, keyin oxirida ilovalar beriladi;
- bitiruv malakaviy ishi rahbarining xulosasi, tashqi va ichki taqriz, kafedrada dastlabki himoyadan o'tganligi bayonnomasi, bitiruv malakaviy ishi topshirig'i muqovaning ichki qismidagi konvertga solinadi;
- titul varag'i kompyuterda yoziladi;
- mundarija alohida sahifada ko'rsatilishi, unda boblar, paragraflar qaysi sahifadan qaysi sahifagachaligi ham qayd etiladi, boblar va paragraflar ketma-ketligi bilan beriladi;
- diagrammalar, chizma va jadvallardan himoya paytida foydalanish mumkin, faqat chizma va jadvallardan katta formatga ko'chiriladi;

Bitiruv malakaviy ishini varaqlari titul varag'idan boshlab hisoblanadi. Ammo titul varag'i va mundarijaga raqam qo'yilmay, kirishdan boshlab 3 raqami bilan boshlanadi.

#### **11. Bitiruv - malakaviy ishlari tayyorlash jarayonida adabiyotlardan foydalanish, ko'chirmachilik va kompilyasiyaga yo'l qo'yilmaslik shartlari.**

Tayyorlangan va himoyaga taqdim etilayotgan bitiruv malakaviy ishlarda muallif tomonidan o'rganilayotgan mavzular bo'yicha chuqur va tanqidiy bibliografik tahlil bo'lishi lozim. Sifatli bibliografik tahlil qilish maqsadida unda boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, tahliliy materiallar, hisobotlar, maqolalar, INTERNETdan olingan ma'lumotlar va h.k.lar o'rganib chiqilgan va ularga muallifning munosabati aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Bibliografik tahlilda keltirilgan adabiyotlar tanlangan mavzuga bevosita daxldor va oxirgi 5-10 yillar davomida nashr etilgan bo'lishi kerak. Bitiruv malakaviy ishi yozishda bibliografik tahlilda kamida 20 ta adabiyotlar manbasidan foydalanish shart.

BMI da ko'chirmachilik va ilmiylikni soxtalashtirishni oldini olish maqsadida har bir adabiyot manbalarining (risolalar, darsliklar, maqolalar, BMI, magistrlik, nomzodlik hamda doktorlik dissertasiyalari va h.k.) ish oxirida ro'yxati keltiriladi, matnda ulardan olingan har bir jumla oxirida katta qavs ichiga ro'yxatdagi qator sanog'i va beti [---] yoki matnda faqat qator sanog'i [----] yozib ko'rsatiladi.

Talaba tayyorlagan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan mahalliy (<https://antiplag.uz>) yoki xorijiy antiplagiat tizimlarida tekshiruvdan o'tkazilganligi to'g'risidagi xulosa (BMI mahalliy yoki xorijiy antiplagiat tizimlarida tekshiruvdan o'tkazilganda 60 % haqiqiylik ko'rsatkichiga ega bo'lishi talab etiladi) taqdim qilishi kerak.

## **12. Bitiruv malakaviy ishni dastlabki himoyaga kiritish**

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi himoya kunidan 5 kun avval jildlanmagan holda ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Rahbar 5 kun ichida malakaviy ishni o'rganib chiqishi va unga o'z xulosasini berishi shart. Ilmiy rahbar malakaviy ishning talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi, tashqi taqriz, BMIga berilgan topshiriq, annotasiya, o'quv jarayoni va amaliyotga joriy etish dalolatnomalari bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobiy (yoki salbiy) tomonlari tavsiflanadi.

Ilmiy rahbar bitiruv malakaviy ish belgilangan talablarga javob bermasligiga ishonch hosil qilsa va talaba kamchiliklarni bartaraf etishdan bo'yin tovlasa ishni dastlabki himoyaga tavsiya etmasligi ko'rsatilgan salbiy taqriz berishi ham mumkin.

Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan dastlabki himoyaga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabning malakaviy ishini dastlabki himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi.

Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishlar dastlabki himoyasini qabul qiluvchi maxsus komissiya tarkibini kafedra majlisiga taqdim etadi va majlis tasdiqlagan komissiya dastlabki himoyani o'tkazadi.

Dastlabki himoyani qabul qilgan komissiya xulosasi bayonnoma (protokol) bilan rasmiylashtiriladi (bayonnoma shakli ilova qilinmoqda). Bayonnomada dastlabki himoyaga kiritilgan talabning ismi-sharifi, BMIning mavzusi, uning asosiy natijalari va kamchiliklari, himoyada talabaga berilgan savollar, savollarga talaba bergan javoblarning natijalari qayd etiladi. Komissiya bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi natijalari asosida uni DAKda himoya qilishga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qiladi.

## **13. Bitiruv malakaviy ishni DAK huzurida himoya qilish**

Dastlabki himoyadan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruv malakaviy ishlar tashqi va ilmiy rahbar taqrizlari, bitiruv malakaviy ishi uchun berilgan topshiriq, annotasiya, o'quv jarayoniga va amaliyotda qo'llanishi haqidagi ma'lumotnomalar hamda dastlabki himoya bayonnomasidan ko'chirmalar bilan birga kafedra mudiri imzosi asosida himoyaga kiritiladi. BMI lar himoyasi institut rektori (prorektori) tomonidan

tasdiqlangan grafikka qat'iy rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Talaba va uning ilmiy rahbari BMIning grafikda belgilangan kuni himoyaga tayyor bo'lishi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Himoya boshlanishidan oldin DAK kotibi bitiruv malakaviy ishining mavzusini, uni bajargan talabning ismi-sharifini, BMIning rasmiylashtirilishi va belgilangan hujjatlar talabga javob berishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shundan so'ng DAK raisi BMIning berilgan ilmiy rahbar xulosasi, tashqi taqriz, ish natijalarini amaliyotga joriy etish dalolatnomasini o'qib eshittiradi va talabga BMIning himoya qilish uchun ruxsat beradi. Rahbar taqrizi bo'yicha noroziliklar bo'lsa himoyachi kamchiliklar to'g'rilanganligi to'g'risida gapirib o'tishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qiluvchi talabning DAK kengashidagi ma'ruzasi 8-10 daqiqa davomida tinglaniladi. Himoya jarayonida ma'ruzachi BMIning asosiy natijalarini ifodalovchi tarqatma materiallar, ko'rgazmali vositalar, taqdimot slaydlari va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq. Ma'ruzachi belgilangan reglamentga qat'iy rioya etgan holda aniq va qisqa jumalarda, mantiqiy ketma-ketlikda BMI mavzusining dolzarbligini, maqsadi va vazifalarini, ishning tarkibini, olingan asosiy natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini, ilgari surilayotgan takliflar hamda tavsiyalarni bayon etib berishi lozim.

Ma'ruzadan so'ng talabga DAK a'zolari tomonidan mavzuga oid savollar beriladi. Talaba berilgan savollarga aniq va tushunarli qilib javob berishi lozim. Agar DAK a'zolari talabning berilgan savollarga javobidan qoniqish hosil qilsalar, talabga himoyani yakunlashga ruxsat beriladi.

Bitiruv malakaviy ishi ochiq himoya qilingandan so'ng DAKning yopiq kengashida himoya natijasi muhokama qilinib 100 balli sistemada baholanadi. Bunda bitiruv malakaviy ishining to'g'ri rasmiylashtirilgani, rejada belgilangan maqsad va vazifalarga qay darajada erishilgani, mavzuni to'liq ochib berilganligi, BMI natijalarining nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyati, himoya jarayonida qilingan ma'ruzaning sifati, ma'ruza jarayonida tarqatma materiallar, ko'rgazmali vositalar va taqdimot slaydlaridan qay darajada foydalanilgani, talabning berilgan savollarga to'g'ri javob bergani kabi bir qator mezonlarga ahamiyat beriladi.

#### 14. Bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari

Bitiruv malakaviy ishni asosiy baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- mavzuning dolzarbligi va yangiligi, uni ishlab chiqishning murakkabligi;
- ko'rilayotgan masala bo'yicha mahalliy va xorijiy manba va maxsus adabiyotlardan to'la foylanilganligi;
- tadqiqot obyekti bo'yicha daliliy ma'lumotlarni to'liq va sifatli to'planganligi;
- qo'yilgan masalani hal qilishda metod va vositalardan foydalanishning tasdiqlanganligi;
- olingan natijalarni tahlil qilib, sharhlay olinganligi;
- xulosa, taklif, tavsiyalarning ilmiy, uslubiy va amaliy ahamiyati hamda ularni isbotlanganlik darajasi va real tadqiq etish imkoniyatlari;
- materialni aniq va to'g'ri, xatosiz bayon etilganligi, ishni sifatli

rasmiylashtirilganligi, mazkur uslubiy ko'rsatma talablari hisobga olinganligi;

• bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy masalalar bo'yicha munozara yurita olinganligi, DAK a'zolarining savollari va taqrizchilar kamchiliklariga berilgan javoblarning to'g'ri va chuqur ifodalanganligi baholanadi.

#### 15. 4 ta talabaga bitta bitiruv malakaviy ishi (BMI) berish hamda uni bajarish mexanizmi, vazifalar taqsimoti va baholash mezonlari

Tarix ta'lim yo'nalishida 4 ta talabaga bitta bitiruv malakaviy ishi (BMI) berish puxta rejalashtirish va aniq tashkiliy tuzilmani talab qiladi. Bu yondashuv talabalarning hamkorlik, boshqaruv va yirik loyihani kompleks tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

BMI tayyorlashni samarali boshqarish uchun quyidagi asosiy bosqichlarga rioya qilinadi:

##### I. Tashkiliy bosqich (kirish)

1. *Mavzuni tasdiqlash*: Loyiha rahbari bilan yakuniy mavzuni aniqlash va tasdiqlash.
2. *BMI ni bajarishni rejalashtirish*: Talabalar BMI ning umumiy tuzilishi (kirish, boblar, xulosalar, manbalar) va har bir bobning hajmini kelishib olishadi.
3. *Guruh rollari va vazifalar taqsimoti*: Talabalar o'zaro guruh yetakchisi (*loyiha koordinatori*), kotib (*hujjatlashtirish va yig'ilishlar*), tadqiqotchi (*manbalar izlash*) va muharrir (*stil va mantiqiy bog'liqlik*) kabi rollarni taqsimlab olishadi. (Qarang: Vazifalar taqsimoti)
4. *Ish rejasini tuzish*: Har bir bobni yozish muddatlari, mas'ul talabalar va oraliq nazorat (yig'ilishlar) sanalarini o'z ichiga olgan batafsil jadval tuzish.

##### II. Bajarish bosqichi (asosiy davr)

1. *Boblar bo'yicha mustaqil ish*: Har bir talaba o'ziga taqsimlangan bob yoki qismni belgilangan muddatda yozadi.
2. *Haftalik/ikki haftalik uchrashuvlar*: Ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchi ishtirokida muntazam uchrashuvlar o'tkaziladi. Bu uchrashuvlarda:
  - *Harakatlar rejasi muhokama qilinadi.*
  - *Yuzaga kelgan muammolar hal etiladi (masalan, manba topish, adabiyotlar tahlili, tushunmovchiliklar).*
  - *Bajarilgan qismlar bir-biriga taqdim etiladi.*
  - *Kotib barcha qarorlar va topshiriqlarni qayd etib boradi.*
3. *Loyihalarni birlashtirish*: Talabalar o'z qismlarini birlashtirgandan so'ng, Muharrir talaba loyihaning stil, terminologiya va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi va uni birlashtiradi.

##### III. Yakunlash va himoya bosqichi

1. *Loyihani to'liq tahrirlash*: Ilmiy rahbar bilan birgalikda to'liq matn tekshiriladi va yakuniy tuzatishlar kiritiladi.
2. *Plagiatga tekshirish*: Institut talablariga muvofiq plagiatga tekshiruvdan o'tkaziladi.
3. *Himoyaga tayyorgarlik*: Himoya qilish uchun taqdimot (Prezentatsiya) tayyorlanadi. Taqdimotda har bir talaba loyihaning o'zi yozgan qismi (yoki

umumiy bir qismi) bo'yicha ma'ruza qiladi. Himoya qilish vaqtida barcha 4 talaba ishtirok etishi shart.

**Talabalar o'rtasida vazifalar taqsimoti:**

Loyihaning hajmi va mavzusiga qarab, boblar soni va mazmuni o'zgarishi mumkin. Quyidagi taqsimot taxminiy hisoblanadi:

Talaba raqami	Asosiy Rol (Ma'suliyat)	BMI ni tayyorlash jarayonidagi vazifasi
1-talaba	Guruh yetakchisi (Kordinator)	Kirish qismini yozish (mavzu dolzarbligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari) va I bob (Nazariy asos/Masala tarixi).
2-talaba	Kotib (Hujjatlashtirish)	II bob (Tadqiqotning asosiy qismi - asosiy manbalarni tahlil qilish).
3-talaba	Tadqiqotchi (manba bazasi)	III bob (Tadqiqotning amaliy/qiyosiy qismi - tanqidiy tahlil, voqealar bayoni).
4-talaba	Muharrir (Tahrir/Bog'liqlik)	Xulosa qismini yozish (natijalar, takliflar) va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish, to'liq matnning mantiqiy bog'liqligi va gramatik va imloviy jihatdan tahrirlash.

**Eslatma:** Barcha talabalar bir-birining qismini o'qib chiqishi, tanqidiy fikr bildirish va manbalar izlashda yordamlashishi shart. *Jamoaviy mas'uliyat* asosiy tamoyil bo'lishi kerak.

**Baholash mezon:** BMI 100 ballik tizimda baholanib, ushbu ball har bir talaba uchun yakka tartibda hisoblanadi, chunki har birining hissa va ishtiroki turli xil bo'lishi mumkin. Baholash 3 asosiy guruhga bo'linadi:

№	Baholash mezon	Ball (Jami 100 ball)	Izoh
I	Loyihani bajarish jarayoni	30 ball	Ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchi (professor) tomonidan baholanadi.
1.1	O'ziga tegishli bobni o'z vaqtida va sifatli yozish.	15 ball	Tarixiy aniqlik, manbalarga asoslanganlik.
1.2	Guruh uchrashuvlarida faollik va rollarni bajarish.	10 ball	Kotib qaydlari va rahbar kuzatuviga asosan.
1.3	Umumiy loyihani	5 ball	Boshqalarning qismlarini o'qish.

	tahrirlashga (guruh hissasiga) yordam.		taklif berish.
<b>II</b>	<b>Taqrizlar, rahbar xulosasi va plagiat natijasi, BMI mavzusiga oid chiqarilgan maqolalar va ochiq dars muhokamasi</b>	<b>30 ball</b>	<b>BMI mazmuni va rasmiy hujjatlarga asoslanadi.</b>
2.1	Plagiat darajasi (ruxsat etilgan chegarada bo'lishi).	5 ball	Plagiat tekshiruvidan o'tganligini ta'minlash.
2.2	Taqrizchilar fikri hamda ilmiy rahbar xulosasi (ishning ilmiy qiymati).	5 ball	Taqrizchining yozma baholashida ko'rsatilgan ilmiy yangilik va xulosalar uchun.
2.3	Ishning umumiy sifati, mantiqiy bog'liqlik (Muharrirlik ishi).	10 ball	BMI ning barcha qismlari orasidagi uzviylik.
2.4	BMI mavzusiga oid chiqarilgan maqolalar va ochiq dars muhokamasi	10 ball	BMI mavzusiga oid chiqarilgan maqolalar va ochiq dars muhokamasi bayonnomasi asosida
<b>III</b>	<b>BMI himoyasi</b>	<b>40 ball</b>	<b>Himoya komissiyasi tomonidan baholanadi.</b>
3.1	Taqdimot sifati va o'z qismini mohirona tushuntira olish.	20 ball	Nutq madaniyati, slydlar sifati, asosiy ma'lumotni yetkaza olish.
3.2	Komissiya savollariga berilgan javoblar.	20 ball	Savollarga tez, asosli va tarixiy manbalarga tayanib javob berish. Har bir talaba o'z qismi bo'yicha berilgan savollarga javob berishda mas'ul.
<b>JAMI:</b>		<b>100 ball</b>	

**Izoh:** *Jamoaviy BMI ishida barcha talabalarning yakuniy balli bir xil bo'lishi shart emas. Agar biror talaba o'z vazifasini yaxshi bajarmagan bo'lsa (masalan, 1.1 band bo'yicha past ball olgan bo'lsa) uning yakuniy balli boshqalarnikidan past bo'lishi mumkin. Bu, adolatli va rag'batlantiruvchi tizimni ta'minlaydi.*

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi yuqorida keltirilgan mezonlar asosida quyidagicha baholanadi:

- ✓ 0-59 ball – 2 (qoniqarsiz);
- ✓ 60-69 ball – 3 (qoniqarli);
- ✓ 70-89 ball – 4 (yaxshi);
- ✓ 90-100 ball - 5 (a'lo).

DAKning malakaviy ishni himoya qiluvchi talabaga qo'ygan bahosi DAK raisi tomonidan e'lon qilinadi. Malakaviy ish himoyadan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha malakaviy ishni boshqalarga topshirish

zaruriyati mavjud bo'lgan holda (tadbiq etish, tanlovlar va hakoza), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).

Uzrli sabablarga ko'ra bitiruv malakaviy ishi himoyasiga kela olmagan talabalar 3 yil mobaynida DAK ka bitiruv malakaviy ishi himoyasiga kiritilishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7267040>
2. Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 225-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i. Toshkent, 2009 yil 22 may, 160-son.
4. Yakubjanova D.Q. Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma. Farg'ona. TATU SF.-2016.-44 b.
5. Davletov D.E. Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent. Renessans ta'lim universiteti. 2024. – 24 b.

#### Internet saytlari:

6. O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. URL: <http://www.gov.uz/>
7. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. URL: <http://www.mitc.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. URL: <http://www.edu.uz/>
9. Ta'lim portali. URL: <http://www.ziyonet.uz/>
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. URL: <http://www.stat.uz/>
11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <http://www.lex.uz/>
12. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi. URL: <http://www.ima.uz/>
13. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. URL: <http://www.tuit.uz/>
14. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. URL: <http://www.nuu.uz/>
15. Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi. URL: <http://www.uzinfocom.uz/>

## Hovalar

I-ilova


A-4 o'lchamli yozuv qog'ozida bitiruv malakaviy ishini yozish

### TARTIBI:

Bitiruv malakaviy ishi betlari quyidagicha yozilishi lozim:

- chap tomondan - 30 mm;
- yuqoridan - 25 mm;
- o'ng tomondan - 15 mm;
- pastdan - 25 mm.

Har bir qatorga 65-70 tadan harf yoziladi. Jami 28-29 qator bo'ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

2-ilova

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TADBIRKORLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI

Tarix va falsafa kafedrası

*“Himoyaga ruxsat etiladi”*  
“Tarix va falsafa” kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ D. Yaqubova

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 yil

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:** Mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi aloqalardagi ishtiroki  
(Surxon vohasi misolida)

BAJARDI: 60220300 – Tarix (mamlakatlar  
yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 4-kurs  
talabasi  
Xoliqulov Asliddin Habibulloyevich

ILMIY RAHBAR: «Tarix va falsafa» kafedrası  
v.b.dotsenti, t.f.b.f.d. (PhD) B.S.Nazirov

Denov – 2025

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TADBIRKORLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI  
TARIX VA FALSAFA KAFEDRASI

**BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ**

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 y.

1. Talaba: \_\_\_\_\_
2. Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
3. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_
4. Bitiruv malakaviy ishi ob'yekti: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_
5. Bitiruv malakaviy ishi rahbari: \_\_\_\_\_
6. Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_
7. Ish rejasi:

BMI bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi bo'limi nomi	Bajarish muddati
Kirish		
I Bob		
II Bob		
III Bob		
Xulosa takliflar		

**8. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:**

a) adabiyot manbalari: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, respublikamiz vaxorijdagi yetakchi tarixchi olimlarning ilmiy ishlari va asarlari.

b) qonuniy-me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar.

c) statistik va boshqa ma'lumotlar: respublika Davlat Statistika Qo'mitasi va Surxondaryo viloyati, \_\_\_\_\_ korxonasi ma'lumotlari.

9. **Tasvirlash materiallari:** jadval, chizma va slaydlar.

10. **Topshiriq berilgan kun:** 202\_\_-yil "\_\_\_"\_\_\_\_\_

11. **Ishni topshirish muddati:** 202\_\_-yil "\_\_\_"\_\_\_\_\_

12. **Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_

13. **Qabul qildim:** \_\_\_\_\_

14. Kafedra mudirining bitiruv malakaviy ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi: \_\_\_\_\_

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TADBIRKORLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI  
TARIX VA FALSAFA KAFEDRASI

Talaba bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi natijasining xulosasi to'g'risida komissiya hay'ati yig'ilishining \_\_\_\_\_ sonli

**BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA**

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 202\_\_ yil

Talaba \_\_\_\_\_ ning  
(Familiyasi, ismi, otasining ismi )

(Bitiruv malakaviy ishi mavzusi)

Ilmiy rahbari: \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi avvalgi yillarga nisbatan o'zgarganmi? \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining rejasi avvalgi yillarga nisbatan o'zgarganmi? \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining adabiyotlar ro'yxati yangilanganmi? \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalari:

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining asosiy kamchiliklari:

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_

Ximoyada ishtirok etgan talabaga BMIning mavzusi bo'yicha berilgan savollar:

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi to'g'risida komissiya hay'atining yakuniy xulosasi: (himoyaga tavsiya etiladi, himoyaga tavsiya etilmaydi) \_\_\_\_\_

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_

- A'zolari: 1. \_\_\_\_\_  
2. \_\_\_\_\_  
3. \_\_\_\_\_

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**TADBIRKORLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI**  
**TARIX VA FALSAFA KAFEDRASI**

Fakultet: Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Talaba: \_\_\_\_\_

Kafedra: Tarix va falsafa kafedrası

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_

O'quv yili 202\_\_/202\_\_

Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar  
yo'nalishlar bo'yicha)

Bitiruv malakaviy ish mavzusi

Yevropa Ittifoqining tashkil topishi va faoliyati

**MUALLIF ANNOTASIYASI**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoev xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasiga yangi tayinlangan elchilaridan ishonch yorliqlarini qabul qilib olish marosimida "Tinchlik, do'stlik va hamkorlik yo'lida" mavzusida ma'ruza qildi (2017 yil 2 may). Prezident o'z nutqida: "Evropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo" formatidagi vazirlarning navbatdagi uchrashuvining O'zbekiston o'tkazilishi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Biz O'zbekiston va Evropa Ittifoqi o'rtasidagi sheriklik munosabatlarining keng ko'lamli investitsiya dasturi doirasida Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha faol ish olib borayapmiz. Evropa Ittifoqining elchisi etib tayinlangan hurmatli Eduard Stiprays janoblarining O'zbekistondagi faoliyati har tomonlama samarali bo'lishiga tilakdoshman"<sup>2</sup>- deb fikrlar bildirdi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisidagi ma'ruzasida (2010-yil 27-yanvar) «Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir» der ekan, mutlaqo haq edi<sup>3</sup>. Darhaqiqat, XX asrning so'nggi o'n yilligida jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlarni o'rganish va tahlil etish shu davrda endigina istiqbolga erishgan O'zbekiston uchun mustaqil tashqi siyosatini yuritishda katta ahamiyatga ega edi. Jumladan, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ham ayni shu sohadagi bilimlar, ko'nikmalar, tajribalarga bevosita bog'liqligini unutmazlik lozim.

BMI uchun tanlab olingan mavzuning dolzarbligi, avvalo, dunyodagi davlatlar o'rtasida kechgan

<sup>2</sup> Mirziyoev SH.M. "Tinchlik, do'stlik va hamkorlik yo'lida" // Qarang: Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - B.386.

<sup>3</sup> Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T. 18 - T. 2010. 137-bet.

eng muvaffaqiyatli integratsiya jarayonlarini bosib o'tgan xalqaro tashkilot - Evropa ittifoqi, uning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish bevosita shu tashkilot bilan aloqalari kengayib borayotgan mamlakatimiz uchun katta ahamiyatga ega ekanligi bilan bog'liq. Qolaversa, bu xalqaro tashkilotning shakllanishi tarixini o'rganish boshqa mamlakatlar o'rtasidagi integratsion jarayonlarni tahlil qilishga va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga Evropaning ikkinchi jahon urushidan keyingi bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini tahlil qilish imkonini tug'diradi.

Bundan tashqari, tanlab olingan mavzuning dolzarbligini uni ilmiy va amaliy tadqiq etish hamda tizimli o'rganishga doir xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj bilan asoslash mumkin.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida xalqaro tashkilotlarni ilmiy va amaliy jihatdan keng tahlil qilishga qaratilgan bir qator malakaviy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida katta e'tibor qaratilganki, ularda ilgari surilgan g'oyalar bevosita O'zbekistonning muhokama qilinayotgan xalqaro tashkilotga nisbatan munosabatini belgilaydi<sup>4</sup>. Bu bevosita ushbu muammoning dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Evropa ittifoqidagi integratsion jarayonlarni rivojlanishi va O'zbekiston Respublikasining bu tashkilot bilan aloqasi masalalari ko'pqirrali va dolzarb bo'lganligi uchun ham ko'pchilik xorij va vatandosh malakaviy ishchilar e'tiborini tortmoqda, siyosatshunos, huquqshunos, tarixchi olimlarimiz tomonidan mavzuga doir bir qator malakaviy ishlar nashr etildi. Jumladan, Rajabov Q. va boshqalar. Jahon tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlarda bugungi kungacha). -T.: «O'zbekiston», 2011, Vek XX: politika, lyudi, sudbu. Avt.sost. Sh.Ergashev, T.Bobomatov, N.Tursunov. -T.: «Sharq», 2007, Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. -T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2009, Jo'rayev N. Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. O'zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. to'ldirilgan va qayta nashr. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009, O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: «Akademiya», 2005. va boshqalar.

Mamlakatimizdagi markaziy nashrlar, ijtimoiy-siyosiy jumallarda va gazetalarda ham bir qator ilmiy, publitsistik maqolalar e'lon qilingan bo'lib, ularda Evropa Ittifoqining rivojlanishi, jumladan O'zbekiston va Evropa Ittifoqi hamkorligi to'g'risida so'z boradi. Amalga oshirilgan malakaviy ish ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mavzu bo'yicha salmoqli ishlar chop etilganligi muhim yutug'imizdir.

Biz o'z malakaviy ishimizda yuqorida keltirilgan malakaviy ishlarning muhimligi va dolzarbligini e'tirof etgan holda, Evropa Ittifoqining ikkinchi jahon urushidan keyingi ilk integratsion jarayonlaridan to bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish tarixini qamrab olishga harakat qildik va xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi nuqtai nazardan o'rganishni asosiy maqsad qilib oldik.

**Bitiruv-malakaviy ishning maqsadi.** Evropa ittifoqining shakllanishi va rivojlanishi mavzusini xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi nuqtai nazaridan o'rganishdan iborat.

**Bitiruv-malakaviy ishning vazifalari.** Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Evropadagi integratsion jarayonlarni o'rganish;
- Ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa uyushmasi (European Coal and Steel community) Evropa hamjamiyatlarini barpo etishga dastlabki harakat ekanligini isbotlash;
- Yelning shakllanishida Maastrix shartnomasining o'rini ochib berish
- Yelda integratsiyaning chuqurlashishi va a'zo davlatlar sonining ortishi sabablarini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasining Evropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligi masalalari va echimlarini tadqiq etishdan iborat.

**Mavzuning ilmiy yangiligi va ahamiyati.** XX asrning so'nggi o'n yilligida jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlarni o'rganish va tahlil etish shu davrda endigina istiqbolga erishgan O'zbekiston uchun mustaqil tashqi siyosatini yuritishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ham ayni shu sohadagi bilimlar, ko'nikmalar, tajribalarga bevosita bog'liqligini unutmaslik lozim.

Yevropa Ittifoqi, uning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish bevosita shu tashkilot bilan

<sup>4</sup> Karimov I.A. To'la asarlar majmuasi. 1-18 jildlar.

aloqalari kengayib borayotgan mamlakatimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bu xalqaro tashkilotning shakllanishi tarixini o'rganish boshqa mamlakatlar o'rtasidagi integratsion jarayonlarni tahlil qilishga va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2015 yil 21 avgustda 303-sonli qarori bilan tasdiqlangan 60220300 – Tarix (mamlakatlar yo'nalishlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malakatalablarida ko'zda tutilgan xalqaro va diplomatik muassasalar faoliyatining tarixiy tajribasi o'rganish, xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasi huquqiy asoslarining tarixiy negizlarini, turli tarixiy davrlarda imzolangan shartnomalar va ilgari surilgan nazariyalar ahamiyatini bilish, hozirgi zamon jahon diplomatiyasi ustuvor yo'nalishlarini tahlil eta olish kabi talablardan kelib chiqqan holda BML mavzusi tanlanganligini hamda shu rasmiy hujjat asosida rasmiylashtirilayotganligini ham nazarda tutish zarur.

**Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Ish kirish, ikkita bob, 4ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**Talaba:**

\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Yakuniy Davlat Attestasiya Komissiyasiga  
bitiruv malakaviy ishi himoyasi bo'yicha talabalar tomonidan  
taqdim etiladigan hujjatlar  
RO'YXATI**

(Har biri tasdiqlangan holda himoyadan 10 kun oldin topshiriladi)

№	Bajariladigan ishlar	Soni
1.	Bitiruv malakaviy ishi	2 nusxada
2.	Talabaning shaxsiy o'quv kartočkasi	1 nusxada
3.	Bitiruv malakaviy ishi topshiriq varaqasi	1 nusxada
4.	Bitiruv malakaviy ishi annotatsiyasi	1 nusxada
5.	Ilmiy rahbar xulosasi	1 nusxada
6.	Ichki taqriz	1 nusxada
7.	Tashqi taqriz	1 nusxada
8.	Himoya paytida so'zlaydigan ma'ruzasi	1 nusxada
9.	Antiplagiat sertifikati	1 nusxada
10.	Bitiruv malakaviy ishi mavzusi doirasida kamida bir dona konferensiyalar to'lamida nashr etilgan tezis.	1 nusxada
11.	Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan tayyorlagan ochiq dars ishlanmasi hamda shu asosida maktabda o'tkazilgan ochiq dars bayonnomasi	1 nusxada